

## ASALARICHILIK SANOATINING MAMLAKATIMIZNING MINTAQAVIY RIVOJLANISHIGA QO'SHAYOTGAN HISSASI

Muxitdinov Xudayar Suyunovich

Qarshi muhandislik - iqtisodiyot instituti professori, i.f.d

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13220914>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada asalari sanoatining mamlakatimizning mintaqaviy rivojlanishiga qo'shayotgan hissasi tahlil qilinadi. Asalarichilikning iqtisodiy va ekologik foydalari, qishloq xo'jaligi bilan bog'liq bo'lgan ijobiy ta'siri va mintaqaviy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli ko'rib chiqiladi. Shuningdek, bu sohaning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar va kelajak istiqbollari ham muhokama qilinadi.

**Kalit so'zlar:** Asalarichilik, mintaqaviy rivojlanish, iqtisodiy foyda, ekologik ta'sir, changlatish, qishloq xo'jaligi, hosildorlik, ish o'rinlari, iqtisodiy ko'rsatkichlar, qishloq hududlari, innovatsion texnologiyalar, davlat dasturlari, ekologik muvozanat, oziq-ovqat mahsulotlari, zamonaviy asalarichilik.

**Kirish.** Asalarichilik sanoati mamlakatimiz iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan biri bo'lib, nafaqat oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish, balki qishloq xo'jaligining samaradorligini oshirishda ham katta ahamiyatga ega. Asalarilarning changlatuvchilik xususiyati tufayli, hosildorlik ortadi va ekologik muvozanat saqlanadi. Shu bilan birga, asalarichilikning mintaqaviy rivojlanishdagi ahamiyati va uning ijtimoiy-iqtisodiy ta'siri ortib bormoqda. Jahon aholisining tez sur'atlar bilan o'sib borishi natijasida, aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabi ham o'sib bormoqda. Shu boisdan qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish va oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni ko'paytirishni eng dolzarb masalalardan biri sifatida kun tartibiga chiqarmoqda. Hususan asalarichilik sanoati qishloq xo'jaligining muhim va ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, fermer xo'jaligi, dehqon xo'jaligi va uy xo'jaliklarga qo'shimcha daromad keltiradi va changlatish xizmatlari orqali aholi uchun bilvosita oziq-ovqat ishlab chiqaradi. Asalarichilik sanoatining mamlakatimizning mintaqaviy rivojlanishiga qo'shayotgan hissasi ko'p jihatdan uning asalarichilik mahsulotlari va qo'shimcha mahsulotlarni samarali ishlab chiqarish va sotish bo'yicha raqobatbardosh salohiyatiga bog'liq. Asalarichilik Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va atrof-muhitni muhofaza qilishda katta rol o'ynaydi.

**Adabiyotlar tahlili.** Asalarichilik sanoati haqida turli adabiyotlar va ilmiy maqolalar mavjud. Asosan, ushbu sohaning iqtisodiy foydalari, ekologik ta'siri va qishloq xo'jaligidagi roli haqida yozilgan. Misol uchun, bir qator tadqiqotlar asalarichilikning hosildorlikni oshirishdagi rolini va changlatish orqali o'simliklarning samaradorligini ko'rsatib beradi. Shuningdek, mintaqaviy rivojlanishga qo'shgan hissasi va yangi ish o'rinlari yaratishdagi roli haqida ham ko'plab maqolalar mavjud.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqotda asalarichilik sanoatining iqtisodiy va ekologik foydalarini aniqlash uchun statistik tahlillar, so'rovnomalar va intervyular o'tkaziladi. Shu bilan birga, qishloq xo'jaligi va asalarichilikning o'zaro bog'liqligini o'rganish uchun qiyosiy tahlillar amalga oshiriladi. Mintaqaviy rivojlanishdagi roli esa hududiy iqtisodiy ko'rsatkichlar va yangi ish o'rinlari soni orqali o'lchanadi.

**Natijalar.** BMT tomonidan o'tkazilgan tahlillarda mazkur muammoning chuqurlashuvi «aholi o'sishi bilan birga qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi salohiyatini kamayib borayotganligi, tuproq sifatining pasayishi va agroiqlimiy resurslardan oqilona

foydalanmaslik, eng avvalo, hududlarni qishloq xo'jaligi tarmoqlariga to'g'ri ixtisoslashtirmaslik oqibatida yuzaga kelmoqda» deb ta'kidlangan. Jahonda mazkur yo'nalishdagi tadqiqotlarga, jumladan, qishloq xo'jaligida asalarichilikni rivojlanishi va ixtisoslashuviga ta'sir ko'rsatuvchi iqtisodiy geografik va biologik omillarni ochib berish, qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari faoliyatini tashkil etish tizimini ilmiy asoslarini takomillashtirishga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Bu bo'rada qishloq xo'jaligini hududiy tashkil etishni rejali va bozor iqtisodiyoti sharoitidagi tamoyillarini o'rganish, mintaqani ykologik jihatdan o'zgarishini baholash asosida rejalashtirishga qaratilgan tadqiqotlar muhim hisoblanadi.

Sog'lom oziq-ovqat (masalan, asal, shohona jele, gulchang va propolis), turli sanoat tarmoqlari uchun xom ashyo (masalan, asal mumi shamlari va moylash materiallari) va tibbiyot (asal, propolis, asalari mumi va ari zahari) manbai hisoblanadi. Bu, ayniqsa, bog'lar va o'rmon zahiralari yaqin joylashgan jamoalar uchun muhim daromad keltiradigan faoliyatdir.

Bugungi kunda respublika qishloq xo'jaligida bozor munosabatlarini shakllantirish, har bir mintaqalarning yer-suv, agroiklimiy resurslaridan samarali foydalanish, ekin maydonlarini hududiy tarkibini va sohadagi tashkiliy-huquqiy bazani takomillashtirish bo'yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda va ijobiy natijalarga erishilmoqda. Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida «Suvsizlik va qurg'oqchilikka chidamli, har bir hududning iqlimiga mos ekinlar, meva va uzumning yuqori hosildor navlarini yaratish va hosildorlikni 30-35 foizga oshirish» muhim vazifa sifatida belgilangan. Bu borada, jumladan O'zbekiston kabi tabiiy-agrar resurslar sifati va miqdori turlicha bo'lgan landshaft mintaqalarida qishloq xo'jaligi yuritishning iqtisodiy geografik biologik xususiyatlarini aniqlash asosida tarmoqni rivojlantirishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 22-dekabrdagi «Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi sohasida islohotlarni tadqiq qilish, strategik rejalashtirish hamda boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-58 son, 2022-yil 7-iyundagi «O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasida belgilangan vazifalar ijrosini samarali tashkil etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi 273-son qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi 5853-son «O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi, 2023-yil 11-sentabrdagi «O'zbekiston – 2030» strategiyasigi to'g'risidagi PF-158-son farmonlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari asalarichilik sanoatining qishloq xo'jaligiga va mintaqaviy rivojlanishga qo'shayotgan ijobiy ta'sirini tasdiqlaydi. Asalarilar orqali changlatish hosildorlikni oshirishi bilan birga, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining sifatini ham yaxshilaydi. Shuningdek, asalarichilik yangi ish o'rinlari yaratish va qishloq hududlarida iqtisodiy faollikni oshirishda katta rol o'ynaydi.

**Xulosa va takliflar.** Asalarichilik sanoati mamlakatimizning mintaqaviy rivojlanishiga sezilarli hissa qo'shmoqda. Ushbu sohani yanada rivojlantirish uchun quyidagi takliflarni ilgari suramiz:

- Asalarichilikka oid ilmiy-tadqiqot ishlarini kengaytirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish.
- Asalarichilik mahsulotlarining marketingini yaxshilash va eksport salohiyatini oshirish.
- Asalarichilikni qo'llab-quvvatlovchi davlat dasturlarini kengaytirish va moliyaviy yordam ko'rsatish lozimdir.

### References:

1. UNEP, 2021, Towards a Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication, <http://www.unep.org/greenconomy>
2. Qodirov, Farrux, and Xudayar Muhitdinov. "Features that increase efficiency in the provision of medical services and factors affecting them." *Ta'lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali* 2.7 (2022): 192-199.
3. Muxitdinov, Madina Bozorova Xudayar, and Farrux Qodirov. "THE ROLE AND IMPORTANCE OF TELEMEDICINE IN THE PROVISION OF MEDICAL SERVICES TO THE POPULATION." *International Conference on Information Science and Communications Technologies ICISCT*. Vol. 4. 2022.
4. Мухитдинов, Худаяр Суюнович. "Анализ и прогноз потребительских расходов и уровня доходов населения при неустойчивости цен." (1994).
5. Suyunovich, Mukhitdinov Khudoyar. "Normahmatov Khayriddin Mingliyevich providing health care services to the population of the region." *journal The American Journal of Management and Economics Innovations (ISSN-2693-0811) for* 3.02 (2021).
6. Mukhitdinov Kh.S. Econometric Modeling Of Public Service Networks. *Psychology and Education* (2020) 57(8): 625-632 ISSN: 00333077
7. Suyinovich, Muxitdinov Xudoyor, Rakhimov Anvar Norimovich, and Muxitdinov Shoxjaxon Xudoyorovich. "The forecast for the development of the public services sector." *Solid State Technology* 63.6 (2020): 18671-18681.
8. Mukhitdinov, Shoxijahon Khudoyarog'li. "An imitation model of quality utility services to the population." *South Asian Journal of Marketing & Management Research* 10.12 (2020): 44-50.
9. Юлдошев Дониёр Абдурахмонович Ш.Х.Муқхитдинов. "МИНТАҚА ТУРИЗМИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ОПТИМАЛ ТАРТИБГА СОЛИШ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ", *ACADEMIC RESEARCH IN MODERN SCIENCE*, 2023/2, <https://doi.org/10.5281/zenodo.7623681>
10. Sh.X. Muxitdinov, "Рақамли иқтисодиёт шароити коммунал хизматлар соҳасини ривожлантиришга таъсир қилувчи омиллар таъсирини баҳолаш", *ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ АХБОРОТНОМАСИ*, 2022/10, 2022/10-2
11. Ш.Х. Мухитдинов, "Қишлоқда коммунал хизмат кўрсатиш сифатини АКТдан фойдаланиб ошириш", 2021/8/7
12. Muxitdinov Shoxijahon Hudoyorovich, "ECONOMETRIC MODEL OF IMPROVING THE

QUALITY OF PUBLIC UTILITIES", Journal of Management Value & Ethics, Том 128, Номер ISSN-2249-9512, Journal of Management Value & Ethics Gwalior Management Academy (GMA) Publications.

13. Qodirov, Farrux. "GPON TEXNOLOGIYASI-OPTIK KIRISH TARMOG'I." *АХБОРОТ-КОММУНИКАЦИЯ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИНИНГ РИВОЖЛАНИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ мавзусидаги Республика илмий-амалий анжуман МАЪРУЗАЛАР ТЎПЛАМИ* (2018).

14. Qodirov, F. "Ijtimoiy va xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishda sog'liqni saqlash xizmatlarini ekonometrik modellashirishning ahamiyati." *O'zR FA VI Romanovskiy nomidagi Matematika instituti* (2022).

15. Qodirov, F. "Qashqadaryo hududi aholisiga xizmat ko'rsatish tarmoqlari va ularga ta'sir etuvchi omillar." *O'zbekiston Qishloq Va Suv xo'jaligi" Jurnal* (2022).

16. QODIROV, F. "Axoliga xizmat ko'rsatish soxasining modellashirishni tizimli imitatsiya qilish." *IJTISODIY ILMIY-AMALIY OYLIK NASHR* (2022).

17. Qodirov, F. "Hududlarda tibbiy xizmatlarni dasturiy paketlar yordamida elektron tibbiy bazasini yaratish." *O'zbekiston Respublikasi Oliy Va o'rta Maxsus ta'lim Vazirligi Namangan Muhandislik-Qurilish Instituti* (2022).

18. Qodirov, F. "Hududlarda tibbiy xizmat ko'rsatishni ekonometrik modellashirish." *Xorazm ma'mun akademiyasi axborotnomasi* (2022).

19. Qodirov, F. "Qashqadaryo viloyati aholisiga tibbiy xizmat ko'rsatish tarmoqlarini rivojlantirishning istiqbollari." *O'ZBEKISTON QISHLOQ VA SUV XO'JALIGI» àà «AGRO ILM* (2022).

20. Qodirov, F. "Qishloq aholisiga sog'liqni saqlash xizmatlari ko'rsatish tarmoqlari rivojlanish mexanizmining statistik tahlili." *Andijon Mashinasozlik Instituti* (2022).

21. Qodirov, Farrux. "Aholiga tibbiy xizmat ko'rsatishdan olingan daromad va xarajatlarni imitatsion modeli." *Moliya bozorini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari, zamonaviy tendensiyalari va istiqbollari" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallar to'plami* 11.5 (2022).

22. Qodirov, Farrux. "O'ZGARUVCHILARI AJRALGAN VA AJRALADIGAN DIFFERENSIAL TENGLAMALAR." *Journal of Advanced Research and Stability* (2022).

23. Кодиров, Фаррух. "ZAMONAVIY KOMPYUTER O'YINLARI VA ULARNING SINFLANISHI." *Scienceweb academic papers collection* (2019).

24. Qodirov, Farrux. "YER OSTI SUVLARINING FIZIK XOSSALARI, KIMYOVIY TARKIBI, HARAKATI VA GRUNTLARNING SUV O'TKAZUVCHANLIGI, FILTRATSIYA QONUNI." *Analytical Journal of Education and Development* (2022).

25. Ergash o'g'li, Qodirov Farrux. "Stoks Formulasi. Sirt Integrallari Tadbiqlari/Ijtimoiy fanlarda innovasiya onlayn ilmiy jurnali." (2022): 15.

26. Ergash o'g'li, Qodirov Farrux. "O'zgaruvchilari ajralgan va ajraladigan differensial tenglamalar/Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali." (2022): 20.

27. Qodirov, Farrux. "Development of scientific and technological system of management of industrial enterprises. Scienceweb academic papers collection." (2023): 1.

28. Ergash o'g'li, Qodirov Farrux. "IMPORTANCE OF KASH-HEALTH WEB PORTAL IN THE DEVELOPMENT OF MEDICAL SERVICES IN THE REGIONS." *Conferencea* (2022): 80-83.

29. Ergash o'g'li, Qodirov Farrux. "CREATION OF ELECTRONIC MEDICAL BASE WITH THE HELP OF SOFTWARE PACKAGES FOR MEDICAL SERVICES IN THE REGIONS." *Conferencea* (2022): 128-130.
30. Qodirov, F. E. "Methodological aspects and importance of development of medical services through econometric modeling and forecasting options."